International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service

Vol. 1 Issue 1 | pp. 53-55 **| ISSN:** XXXX-XXXX

Available online @ https://globalconf.net/index.php/samisi

Article

Barqaror Rivojlanish Modelida Yashil Iqtisodiyotga O‘Tish Siyosatining Transformatsiyasi

Berdikulova I.R*[1]

1. Samarkand Institute of Economics and Service, PhD.
   Department of “Green Economy and International Business,” Samarkand Institute of Economics and Service, Samarkand;

* Correspondence: irodaberdikulova82@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xizmatlar sohasini rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha Prezident farmon va qarorlari, jumladan Harakatlar strategiyasi, «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi va PQ-104-son qaror doirasidagi chora-tadbirlar tahlil qilingan. Rasmiy statistika asosida soha ulushi, hududiy joylashuvi va xizmatlar eksporti tarkibi baholandi. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va JSTga integratsiya sharoitida sohani rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot, soliq imtiyozlari, xalqaro integratsiya, JST, Harakatlar strategiyasi.

Citation: Berdikulova I.R. Barqaror Rivojlanish Modelida Yashil Iqtisodiyotga O‘Tish Siyosatining Transformatsiyasi. International Scientific and Practical Conference Samarkand Institute of Economics and Service 2026, 1(1), 53-55.

Received: 12th Aug 2026
Revised: 26th SSep 2026
Accepted: 18th Oct 2026
Published: 22th Nov 2026

Copyright: © 2026 by the authors. Submitted for open access publication under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)

1. Kirish

Iqlim o‘zgarishi va ekologik xatarlarning kuchayishi YaIM o‘sishini maksimallashtirishga qaratilgan an’anaviy modelni iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni uyg‘unlashtiruvchi barqaror rivojlanish modeli bilan almashtirishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda yashil iqtisodiyot iqtisodiy siyosatning maqsad va vositalarini qayta shakllantiruvchi asosiy yo‘nalishga aylandi.

Yevropa Ittifoqi (YeI) 2019-yilda Yevropa yashil kelishuvi orqali 2050-yilgacha iqlim neytralligiga erishishni strategik maqsad qilib belgiladi [1]. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi [2] va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi [3] doirasida resurs samaradorligi va qayta tiklanuvchi energetika ustuvor vazifa etib belgilandi. Tadqiqot maqsadi – ikki tizimning transformatsiya modellarini qiyosiy baholash va milliy siyosatni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

2. Adabiyotlar sharhi

Yashil o‘sishning amalda erishilishi ilmiy munozara mavzusi bo‘lib qolmoqda. J. Hickel va G. Kallis iqtisodiy o‘sish va ekologik bosim o‘rtasidagi mutlaq ajralish iqlim maqsadlari talab etadigan sur’atda kechishi ehtimoli past ekanini ta’kidlaydi [4]. G. Claeys, S. Tagliapietra va G. Zachmann Yevropa yashil kelishuvining muvaffaqiyatini uglerod narxi, investitsiyalarni qayta yo‘naltirish va “adolatli o‘tish” mexanizmlarining uyg‘unligi bilan bog‘laydi [5]. Jahon banki tadqiqotida O‘zbekiston iqtisodiyotining yuqori uglerod intensivligi va energetikani dekarbonizatsiya qilish zarurati asoslangan [6]. Biroq YeI va O‘zbekiston siyosatini yagona mezonlar asosida qiyoslovchi tadqiqotlar yetarli emas

3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda YeI (Yevropa iqlim qonuni [7]) va O‘zbekistonning (PQ-4477, yangilangan NDC [8]) siyosiy-huquqiy hujjatlari kontent-tahlil qilindi, so‘ngra maqsad va natija o‘rtasidagi tafovut tahlili o‘tkazildi. Maqsadga erishish darajasi quyidagicha aniqlandi:

$$P = (A / T) \times 100\%, \quad (1)$$

bu yerda A – ko‘rsatkichning erishilgan qiymati; T – 2030-yil uchun maqsadli qiymat. Siyosat vositalari (huquqiy, bozor, moliyaviy) qiyosiy institutsional tahlil qilindi.

4. Tahlil va natijalar

1-jadval. YeI va O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish maqsadlarining bajarilish darajasi

Ko‘rsatkich	Maqsad (2030)	Erishilgan holat	P, %
YeI: sof IGG emissiyasining 1990-yilga nisbatan qisqarishi	kamida 55%	37% (2023)	67,3
YeI: QTE ning yalpi yakuniy energiya iste’molidagi ulushi	42,5%	24,5% (2023)	57,6
O‘zbekiston: YaIM birligiga IGG emissiyasining 2010-yilga nisbatan qisqarishi	35%	40,6% (2022)	116,0
O‘zbekiston: elektr ishlab chiqarishda quyosh va shamol energiyasi ulushi	40%	≈10% (2024-y. boshi)	≈25

Manbaa: [8–13] asosida muallif hisob-kitobi. IGG – issiqxona gazlari; QTE – qayta tiklanuvchi energiya.

YeIda mutlaq emissiya maqsadi belgilangan: 2023-yilda sof emissiya 1990-yil darajasidan 37 foiz past bo‘lgan, ayni davrda YaIM 68 foizga o‘sgan [9], ya’ni mutlaq ajralish kuzatilmoqda. Bunda emissiya savdosi tizimi (EU ETS) muhim rol o‘ynagan: u qamrab olgan sektorlarda emissiya 2005-yilga nisbatan 47,6 foizga kamaygan [9]. QTE ulushi 2023-yilda 24,5 foizni tashkil etgan [10]; 42,5 foizlik maqsadga erishish uchun yillik o‘sish sur’atini qariyb ikki baravar oshirish talab etiladi.

O‘zbekistonda nisbiy (intensivlik) maqsadi qo‘llanilgan. 2022-yilga kelib YaIM birligiga to‘g‘ri keladigan emissiya 2010-yilga nisbatan 40,6 foizga kamaygan, ya’ni 2030-yil maqsadi muddatidan oldin bajarilgan [11]. Biroq emissiyaning mutlaq hajmi 209,6 mln t CO_2-ekvivalentga yetib [12], o‘sishda davom etmoqda. Shu sababli yangilangan NDC 3.0 da intensivlikni 50 foizga qisqartirish majburiyati qabul qilindi [11]. Quyosh va shamol energiyasi ulushini 2024-yil boshidagi 10 foizdan 2030-yilda 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan [13].

Moliyalashtirishda ham farq yaqqol: YeIda taksonomiya va oshkoralik talablari xususiy kapitalni yo‘naltiruvchi bozor infratuzilmasini yaratgan bo‘lsa, O‘zbekiston 2023-yilda MDHda birinchi bo‘lib 4,25 trln so‘mlik suveren yashil yevroobligatsiyalarni joylashtirdi [14].

Demak, YeI siyosatini “regulyativ-bozor” modeli sifatida tavsiflash mumkin: unda majburiy huquqiy maqsadlar, uglerod narxi va moliyaviy oshkoralik yagona tizimga birlashgan. O‘zbekiston siyosati “strategik-investitsion” modelga mos keladi: davlat dasturlari va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yirik energetika loyihalari yetakchi o‘rin tutadi. Bu model tez natija bersa-da, bozor signallarisiz uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashi qiyin.

5. Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar taklif etiladi: iqlim maqsadlarini qonun darajasida mustahkamlash va intensivlik maqsadi bilan birga mutlaq emissiya cho‘qqisi muddatini belgilash; milliy shaffoflik (MRV) tizimi [15] ma’lumotlari asosida yirik

emitentlar uchun bosqichma-bosqich uglerod narxi mexanizmini joriy etish; milliy yashil taksonomiyani YeI taksonomiyasi bilan muvofiqlashtirish; yashil obligatsiyalar tajribasini korporativ va munitsipal darajaga kengaytirish; YeIning chegaraviy uglerod mexanizmi (CBAM) talablariga tayyorgarlik uchun eksportyor korxonalarda uglerod hisobini yo‘lga qo‘yish. Ushbu choralar strategik-investitsion modelni bozor mexanizmlari bilan boyitib, barqaror rivojlanishga o‘tishning izchilligini ta’minlaydi.

.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. European Commission. The European Green Deal. COM(2019) 640 final. – Brussels, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
4. Hickel J., Kallis G. Is Green Growth Possible? // New Political Economy. – 2020. – Vol. 25(4). – P. 469–486.
5. Claeys G., Tagliapietra S., Zachmann G. How to make the European Green Deal work // Bruegel Policy Contribution. – 2019. – No. 13.
6. World Bank. Uzbekistan Country Climate and Development Report. – Washington, DC, 2023.
7. Regulation (EU) 2021/1119 (European Climate Law). – 30.06.2021.
8. Republic of Uzbekistan. Updated Nationally Determined Contribution. – UNFCCC, 2021.
9. European Commission. Climate Action Progress Report 2024. COM(2024) 498 final.
10. Eurostat. Renewables account for 24.5% of EU energy use in 2023. – 19.12.2024.
11. UNFCCC. Facilitative multilateral consideration of progress: Uzbekistan. Q&A. – 2025.
12. Republic of Uzbekistan. First Biennial Transparency Report. – UNFCCC, 2024.
13. Mirzamahmudov J. Energetika sohasi istiqbollari (intervyu) // Gazeta.uz. – 30.09.2024.
14. UNDP Uzbekistan. Uzbekistan issues first ever green sovereign Eurobonds worth 4.25 trillion UZS. – 09.10.2023.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-213-son qarori.